

BOSHLANG'ICH SINFLARDA GURUH BO'LIB ISHLASHNING AHAMIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs 1-25-guruh magistranti Mahmudova Charos Baxtiyor qizi

Email: charosmahmudova8@gmail.com

Orcid: 0009-0007-2933-8493

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sinf-dars tizimining tashkil etilishi, o'quvchilarda guruh bo'lib ishlashni o'rgatish, guruhli ishlashning ijobiy va salbiy tomonlari yoritilib beriladi. 7-10 yoshli bolalarda jamoaviy o'yinlar tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf darsliklari yuzasidan bir qancha guruhli topshiriqlar tahlili va maqsadi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: sinf-dars tizimi, guruhli o'qitish, jamoada ishlash, didaktik o'yinlar, hamkorlik hissi, muammoli vaziyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация работы в классе начальной школы, обучение учащихся работе в группах, а также положительные и отрицательные стороны групповой работы. Предомтавляется информация по организации командных игр для детей 7-10 лет. Кроме того, поясняются анализ и цель нескольких групповых заданий из учебников для начальной школы.

Ключевые слова: система обучения в классе, групповое обучение, командная работа, дидактические игры, чивство сотрудничества, проблемная ситуация.

Abstract: This article discusses the organization of the classroom system in elementary grades, teaching students to work in groups, and the positive and negative aspects of group work. Information is provided on organizing team games for children aged 7-10. In addition, an analysis and purpose of several group assignments from elementary school textbooks are explained.

Keywords: classroom system, group teaching, teamwork, didactic games, collaboration, problematic situation.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim –bu o'quvchilarda bilim olishga o'z fikrini bildirishga va jamoada ishlashga o'rgatuvchi eng muhim bosqichdir. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi –o'quvchilarda o'qish, yozish va hisoblash malakasini shakllantirish; atrof-muhit haqida boshlang'ich tushunchalarni berish; mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kuzatuvchanlikni rivojlantirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini singdirish mehnatsevarlik va intizomni o'rgatishdir. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limga berilayotgan e'tibor yurtimizda va jahon miqyosida alohida ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbeiston –yangi ta'lim" tamoyili asosida boshlang'ich ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirish kata ahamiyat berilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zamonaviy darsliklar interfaol metodlar, raqamli ta'lim resurslari joriy etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchini faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda guruhli ishlash usuli muhim o'rin

tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu metod o'quvchilarning faolligini oshirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim tizimi milliy o'quv dasturi asosida o'qitilmoqda. Milliy dasturda mavzular spiralsimon tarzda o'qitilmoqda, ya'ni oddiydan murakkabga qadar. Darsliklardagi mavzular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka, guruh bo'lib ishlashga qaratilgan. Guruh bo'lib ishlashda shaxsiy mas'uliyat muhim bo'ladi: har bir o'quvchi guruh ichida o'zining alohida vazifasiga ega (masalan, sardor, kotib, vaqtni nazorat qiluvchi). Bu bola uchun "mening ham o'rnim bor" degan tuyg'uni beradi. O'quvchilar bir-biri bilan bevosita muloqot qilish, fikrga qarshi chiqish emas, balki uni to'ldirish va murosaga kelishni o'rganadilar. Guruh a'zolari mashg'ulot so'ngida qanday ishlaganliklari yuzasidan tahlil o'tkazishadi. Guruh tarzda mashg'ulot o'tkazish o'qituvchiga ham bir qancha qulayliklar olib keladi: vaqtdan unumli foydalanishga, o'quvchilarning qobiliyatlarini tahlil qilishga, kimning bilimi sayoz, kimniki o'rtacha, kimning bilimi yuqori ekanligi guruh o'rtasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Guruh bo'lib ishlash va jamoaviy ta'lim sohasida jahonning ko'plab yetakchi olimlari tadqiqotlar o'tkazgan. Vigotskiyning "Ijtimoiy konstruktivizm" nazariyasi guruhli o'qitishning poydevori hisoblanadi. U asarning bosh g'oyasi o'quvchi bilimni faqat yakka tartibda emas, balki ijtimoiy muloqot orqali yaxshiroq o'zlashtirishi sanaladi. Bola mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni tengdoshlari yoki o'qituvchi ko'magida bajara olishi asarda yoritib berilgan.

Minnesota universiteti professorlari bo'lgan Devid Jonson va Rojer Jonson ismli aka-uka olimlar jamoaviy ta'limning eng mashhur "Besh tamoyili"ni ishlab chiqqanlar. Ya'ni besh tamoyil quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: Ijobiy o'zaro bog'liqlik, yuzma-yuz muloqot, shaxsiy javobgarlik, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh faoliyati tahlili. Bu tamoyillar guruhli ishlashning asosiy qoidalari hisoblanadi.

O'zbekistonda ham darsda guruh bo'lib ishlash va hamkorlik pedagogikasining nazariy asoslarini bir qancha olimlar o'rgangan. Bulardan:

H. Omonov va N. Xo'jayev: Ular pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid ishlarida dars jarayonida o'quvchilarning yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlash usullarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Roziya Sayidaxmedova: Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, jumladan, guruhli o'qitish metodlarining samaradorligi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan. Bu kabi olimlarning tadqiqotlari bugungi kun olimlari uchun ham muhim manba sifatida qadrlanib kelmoqda. So'nggi yillarda ushbu mavzuni yangi o'quv dasturlari (milliy o'quv dasturi) asosida yoritayotgan mutaxassislar:

Umarova R.U.: Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan, jumladan kichik guruhlarda ishlash metodlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.

Sh. Kamolova: Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, jumladan o'quvchilarni jamoaviy ishlashga o'rgatish bo'yicha izlanishlar olib borgan.

O'zbek olimlari guruh bo'lib ishlashni faqat bilim berish usuli emas, balki o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholaydilar. Haqiqatan ham, guruh bo'lib ishlash faqat dars jarayonining samaradorligi uchun emas, balki o'quvchilarning shaxsiy faoliyatida ham muhim ahamiyatga egadir. Ular guruhda o'zini tutishni, o'z g'alar fikrini eshitishni, erkin muloqot qilishni o'rganadilar.

Natija va tahlil

Guruhli ishlash pedagogika sohasida munosib o'ringa ega hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar o'rtasida jamoada o'zini tutish hissi shakllanadi. Guruh bo'lib ishlash- bu o'quvchilarni kichik jamoalarga ajratib birgalikda topshiriq bajarish, muammoni hal qilish yoki yangi bilimni kashf etish jarayonidir. Har bir o'quvchi guruh ichida faol ishtrok etadi, o'z fikrini bildiradi. Guruhli ishlashning bir qator ijobiy va salbiy tomonlari bor:

1. Faollikni oshiradi. Guruh bo'lib ishlashda har bir bola o'z hissasini qo'shadi va darsga nisbatan ishtiyoqi oshadi.
2. Hamkorlik va do'stlikni rivojlantiradi. Guruhda o'quvchilar bir-biriga yordam beradi, do'stining fikrini tinglashga o'rganadi.
3. Mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Guruhli topshiriqlarda har bir o'quvchi fikr bildirishga harakat qiladi. Bu ularning nutqini rivojlantiradi.
4. Mas'uliyat hissini shakllantiradi. Har bir o'quvchi o'z guruhi uchun javobgar bo'ladi va o'z vazifasini mas'uliyat bilan bajarishga undaydi.
5. O'qituvchi uchun qulaylik yaratadi. O'qituvchi har bir guruh bilan alohida ishlay oladi va bilim darajalarini o'zaro taqqoslay oladi.

Shu bilan birga guruh bo'lib ishlashning ba'zi bir salbiy taraflari ham bor:

1. Darsda shovqinning kuzatilishi. Guruhli topshiriqni bajarish jarayonida hamma o'quvchi birgalikda harakat qilganligi sababli, darsda shovqin bo'lishi mumkin.
2. Guruh sardoriga nisbatan g'arazning paydo bo'lishi. Guruh bo'lib ishlashda, guruh sardori saylab olinadi va u guruh a'zolarini boshqarib turadi. Jamoa a'zolari sardorga nisbatan g'arazgo'yliklari tutadi.
3. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning chetda qolishi. Guruh bilan ishlashda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar kamroq qatnashib, qolgan o'quvchilar soyasida qolishi mumkin. Natijada o'qituvchi uning bilim saviyasini to'g'ri baholay olmaydi.

Endi boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'tiladigan fanlar yuzasidan guruhli ishlash metodiga mos topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

Masalan, 2-sinfdagi "Tabiatshunoslik" darsida o'quvchilarni 4ta guruhga bo'lib har biriga fasllar haqida kichik topshiriq berish mumkin. Bunda har bir guruhga bittadan guruh sardori tayinlab olinadi. U guruh a'zolarini faol ishlashga undaydi. Har bir guruh o'ziga fasllardan nomlaydi. Masalan, 1-guruh a'zolari "Bahor", ikkinchi guruh esa "Yoz" va h.k. Guruh a'zolari guruhini tanishtiradi. Kimdir she'r aytadi, kimdir rasm chizadi, kimdir tabiat hodisalarini tushuntiradi. Bu jarayon bolalarda hamkorlik, ijodkorlik va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmasini shakllantiradi. 3-sinf o'quvchilari uchun ham ona tili darsida guruhli topshiriqlardan foydalanish mumkin. Misol uchun, "Gap bo'laklari" mavzusini o'tish vaqtida o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va har biri yuzasidan tayyorlangan topshiriqlarga javob topishadi.

- 1) Darak gap;
- 2) So'roq gap;
- 3) Buyruq gap;
- 4) Istak gap.

4-sinf o'qish darslarini jamoaviy tarzda o'tkazsa bo'ladi. Bunda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linishadi va bir guruh shoh va shoir bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan foydalanib sahna ko'rinishi tashkil qilishsa, boshqa guruh g'azal mulkingning sultoni-Alisher Navoiy merosini

yoritib berishadi. Eng chiroyli chiqish tayyorlagan guruh a'zolari g'olib deb topilib , rag'batlantiriladi.

Kosimova Manzura Abdullayevna "Cooperative Teaching Technology in Primary Schools: Innovative and Integrative Methods"¹ nomli maqolasida boshlang'ich maktablarda kooperativ o'qitish strategiyalarining qo'llanilishi , o'quvchilarning ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi va guruh ishining ahamiyati ta'kidlangan.¹

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan topshiriqlar tahlilini ko'rib chiqamiz:

1.Ona tili fanidan :Ertakni davom ettiring(har bir guruhga bir xil ertakning boshlanish qismi beriladi, guruh a'zolari birgalikda ertakni davom ettirishadi. Bu topshiriqdan asosiy maqsad : matni tushunish, ijodkorlik va fikr almashishni rivojlantirish.

2.Matematika fanidan: "Savdo do'koni" o'yini (har bir guruh "do'kon" tashkil etadi, guruhlar bir-biriga xaridor va sotuvchi sifatida xizmat qiladi. Bundan asosiy maqsad: qo'shish-ayirish amallarini amaliyotda qo'llashdan iborat. O'quvchilardan to'g'ri hisob-kitob qilish , navbat kutish , muloqot madaniyati kabilar talab qilinadi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3.Tabiatshunoslik fanidan:" O'simlik qismlarini aniqlaymiz"(har bir guruhga turli o'simlik namunalari :barg, ildiz, poya beriladi. Guruh a'zolari bu qismlarni nomlaydi, ularning vazifasini muhokama qiladi. Yakunda har bir guruh "Bizning o'simligimiz" nomli plakat tayyorlaydi. Ushbu topshiriqdan asosiy maqsad: kuzatish va hamkorlik orqali o'rganishni shakllantirishdan iborat.

2-sinf o'quvchilari uchun tabiiy fan darsligi yuzasidan "Tabiat" mavzusini o'tkazishda guruhli mashg'ulotlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilar 2 guruhga bo'linishadi. Birinchi guruh a'zolari "Jonli tabiat" ,ikkinchi guruh a'zolari "Jonsiz tabiat" deb guruhlarini nomlashadi. Birinchi shartda ular guruh nomlariga tavsif berishadi. So'ng guruh nomlariga misol keltirib, rasmlar orqali izohlab berishadi. Keyingi shartlarda o'quvchilarning ijodkorliklarini baholash maqsadida "Yasash" texnologiyasi amalga oshiriladi. Bunda bolalar rangli qog'ozlardan, plastilinlar va shunga o'shish vositalardan foydalanib turli xildagi ko'rgazmali qurollar yasashadi. Dars davomida eng faol qatnashgan guruh o'quvchilari g'olib deb topilib, rag'batlantiriladi. Bu usul darsning odatdagidan ko'ra qiziqarliroq va natijaviy o'tishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda , boshlang'ich sinflarda guruh bo'lib ishlash- bu nafaqat bilim berish, balki jamoada ishlash , muloqot qilish, yordam berish va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirishdir. Shu sababli guruhli o'qitish bugungi kunda zamonaviy ta'limning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Dars qanchalik qiziqarli tashkil etilsa, o'quvchilarning qiziqishi ortadi. O'qituvchi qanchalik mahorat egasi ekanligi uning tashkil etgan darsiga aks etadi. Shu sababli har bir pedagog darsga tayyorlangan holda, turli xil metod va texnologiyalardan foydalanishi lozim. Xalqimizda "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir" deb bejizga aytishmagan. O'quvchilarga yoshlik paytlardan boshlab jamoa oldida o'zini tutishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga , o'z g'alar fikrini tinglashga o'rgatib borish zarur. Boshlang'ich sinf darslarida guruh bo'lib ishlash usulini qo'llash bo'yicha olib borilgan tahlillar va jahon hamda o'zbek olimlarining qarashlariga tayanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin: guruh bo'lib ishlash nafaqat iqtidorli bolalarni yanada rivojlantiradi, balki past o'zlashtiruvchi bolalarning ham darsdan chetda qolib ketmasligini

¹ Kosimova M."Cooperative Teaching Technology in Primary Schools:Innovative and Integrative Methods " Emergent : Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning 2025,10-mart

ta'minlaydi. Bu metod ta'limning ham didaktik, ham tarbiyaviy funksiyalarini bir vaqtda bajaradi. O'qituvchi bu jarayonda faqat yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qiladi, asosiy mehnat va natija o'quvchilarning hamkorlikdagi izlanishlari mahsuliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ramazonova A., Mamasaidova M., Umaraliyeva Sh. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari" 2024
2. Ne'matova N. "Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar orqali darslarni samarali va mazmunli olib borish" Educational Research in universal Sciences 2024
3. Xusanov R. "Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarning ahamiyat va interfaol usullarning qo'llanishi" O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va ilmiy Tadqiqotlar Jurnali 2024-y.
4. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. "Ona tili" 2-sinf darslik T.2018
5. Burxonov S., Xudoyorov O., Norqulova Q. "Matematika" 3-sinf darslik T.2018
6. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. "Tabiatshunoslik" T.2017
7. Kosimova M. "Cooperative Teaching Technology in Primary Schools: Innovative and Integrative Methods" EJEDL 2025-y
8. Lev Vigotskiy "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes"
9. Devid Jonson va Rojer Jonson "Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning"
10. Ziyonet.uz sayti